

**INDIVIDUAL YONDASHUVLAR ASOSIDA MUSIQA O'QITISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.**

*O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti  
dotsenti, p.f.f.d. G.M.Davronova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, individual yondashuvlar asosida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirishning muhim jihatlari, nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, musiqa ta'limi samaradorligini oshirish va zamonaviy talablar asosida o'quv jarayonini shakllantirish dolzARB masala sifatida o'rganilgan.

- **Kalit so'zlar:** Metodika, o'qitish metodikasi, individual tushunchasi, individual yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, sifati ta'lim, innovatsion yondashuv.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ  
МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ МУЗЫКИ НА ОСНОВЕ  
ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ.**

*Узбекистан - Финский педагогический институт  
доцент, п.ф.ф.д. Г.М. Давронова*

**Абстрактный:** В данной статье выделены важные аспекты совершенствования методики музыкального образования на основе индивидуальных подходов, теоретические основы, изучены как актуальные вопросы повышения эффективности музыкального образования и формирования образовательного процесса на основе современных требований. .

- **Ключевые слова:** Методика, методика преподавания, индивидуальная концепция, индивидуальный подход, личностно-ориентированное образование, качественное образование, инновационный подход.

**THEORETICAL BASIS OF IMPROVING MUSIC TEACHING  
METHODOLOGY BASED ON INDIVIDUAL APPROACHES.**

*Uzbekistan - Finnish Pedagogical Institute  
associate professor, p.f.f.d. G.M. Davronova*

**Abstract:** In this article, the important aspects of improving the methodology of music education based on individual approaches, the theoretical foundations are highlighted, the improvement of the effectiveness of music education and the formation of the educational process based on modern

*requirements are studied as an urgent issue.*

- **Keywords:** *Methodology, teaching methodology, individual concept, individual approach, person-oriented education, quality education, innovative approach.*

Bugungi kunda ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida, ta'lif sifatini oshirish, dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Zamon va texnologiyalarni shiddat bilan rivojlanishi, har bir yo'nalishda o'qitishning zamonaviy metodikani takomillashuvini va samarali yondashuvlarni talab etmoqda.

Ta'limgagi islohotlar o'quv muassasalarida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish talab etmoqda. Zero, jamiyatni ma'naviy yuksalishi, va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashda musiqa nafaqat san'at turi sifatida ta'siri, balki o'quvchilarda estetik did, milliy madaniyatni anglash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning kuchli vositasidir.

Bugungi kunda musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirishda bir qancha samarali yondashuvlar mavjud:

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif. (Individual va differensial yondashuvlarning ahamiyati);
- Interaktiv o'qitish usullari va dasturlari;
- Kreativlikni rivojlantirish;
- Integratsyon yondashuvlar;
- Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- Baholash tizimini takomillashtirish;
- Psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash;
- Musiqiy repertuarni diversifikatsiya qilish (an'anaviy va zamonaviy musiqalarni birlashtirish). Ushbu yondashuvlar o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish, ularning istedodini rivojlantirish va ta'lif samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ammo bugungi kunda ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga ko'ra o'quvchilarning psixologik va fiziologik holatining keskin o'zgarib borishi, nomutonosib tarzda rivojlanishi ta'lif-tarbiyasiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu jarayon o'qitishda individual yondashuvlarning dolzarligini oshirmoqda.

"Individual" tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'ib, yakka tartibda yolg'iz va maxsus shug'ullanish ma'nolarini bildiradi. [3, 340-b.]

Individual yondashuv — bu har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatları va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Ushbu yondashuv ta'lif jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish va ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek individual yondashish—bu pedagogik tamoyilga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan

holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun pedagogic-psixologik muhit yaratiladi. [4, 22-b.]

Individual yondashuvlarning asosiy tamoyillari quydagilardan iborat:

- Har bir o'quvchining aqliy, jismoniy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash va ularga mos ravishda yondashuvni tanlash;
- Har bir o'quvchining rivojlanish sur'ati va o'zlashtirish darajasiga qarab, alohida dasturlar ishlab chiqish;
- O'quvchilarning yutuqlarini umumiy standartlarga emas, balki ularning individual rivojlanish dinamikasiga qarab baholash;
- Har bir o'quvchini o'z ta'lif jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, mustaqil fikrlash va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

Individual yondashuv har bir talaba bilan yakka holda ishlashni nazarda tutmaydi.

Individual yondashuv pedagogikaning shaxsga yo'naltirilgan modelini amalga oshiradi. Bu nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilaydi, balki ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har bir o'quvchining qobiliyatları, qiziqishlari va musiqiy tayyorgarligi darjasasi o'ziga xosdir. Individual yondashuv o'quvchining iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Bu nafaqat musiqaga qiziqishni oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy o'ziga ishonchini ham kuchaytiradi.

Individual yondashuv ta'lifning differentsial modelini ishlab chiqishga imkon beradi. Masalan, yuqori darajadagi qobiliyatli bolalar uchun kengaytirilgan dasturlar, boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun esa qo'shimcha yordam metodlarini tatbiq etish zarur.

Individual yondashuv asosida musiqa o'qitish metodikasi o'quvchilarning nafaqat musiqiy, balki umumiy intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu metodika o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni rag'batlantiradi, natijada ta'lif sifati oshib, milliy va global miqyosda raqobatbardosh shaxslarni shakllantirishga yordam beradi.

Musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin.

-An'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirish orqali: tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, faqat an'anaviy metodlarga tayanish musiqa o'qitish jarayonini bir tomonlama qiladi va o'quvchi-talabalarni qiziqtira olmaydi. Innovatsion texnologiyalar, masalan, raqamli platformalar, musiqa dasturlari va boshqa interaktiv vositalar qo'llanilishi musiqa o'rganishga qiziqishni oshiradi. Shuning uchun an'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirish o'quv jarayonini takomillashtirishda samarali usul bo'lib, talabalar uchun mazmunli va qiziqarli o'qish muhitini yaratadi.

- Raqamli va interaktiv vositalarning samaradorligi: raqamli texnologiyalar (multimedia ilovalar, taqdimot slaydlari, interaktiv musiqiy dasturlar) musiqa o'qitishda muvaffaqiyatlari qo'llanmoqda. Ushbu vositalar talabalarga o'quv materiallarini yanada interaktiv tarzda bilish, tushunish va qo'llash imkonini berib, o'zlarini baholashga va mahoratlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli vositalarning doimiy yangilanib borishi va ularning innovatsion qirralarini o'qitishda qo'llash imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

- Didaktik materiallar va o'quv qo'llanmalarning sifatini oshirish: musiqa ta'limida ishlatiladigan o'quv qo'llanmalar, darsliklar va didaktik materiallar yetarli darajada yangilanmagan bo'lsa, o'quv jarayoniga ta'siri pasayadi. Buning yechimi, zamonaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalarni yangicha metodik yondashuvlar bilan mazmunan boyitilishi zarurat ekanligi aniqlandi. Bu orqali talabalarga o'quv jarayonida eng yangi bilim va ko'nikmalarni taklif qilish mumkin bo'ladi.

- Individual yondashuvi orqali: Individual yondashuv musiqa o'qitishda sezilarli samaradorlikni oshiradi. Musiqada o'qitishni samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning musiqiy qobiliyati, va qiziqishlariga qarab, individual yondashish, individual topshiriqlar berish usuli ancha muvaffaqiyatlari natijalarga olib keladi. Shu sababli, musiqa o'qitishda har bir o'quvchi-talabaning ehtiyojlariga mos o'quv rejalarini ishlab chiqish muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa o'qitish jarayoni ham, boshqa fanlar qatori doimiy takomillashuvni taqozo etada. Ma'lumki, yillar davomida ta'limda umumiylig, barcha o'quvchilarni bir xil, o'zgarmas dasturlar orqali o'qitish shakli keng qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda butun dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham ta'lim-tarbiyada individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etamoqda. Tadqiqotlar natijasida shuni alohida takidlash lozimki, ta'limning har bir bo'g'inida: maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, oliy ta'lim muassasalarida individual yondashuvlarning ahamiyati ortmoqda. Musiqa o'qitishni takomillashtirishda samarali va zamonaviy metodika va yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarning imkoniyat va ehtiyojlaridan kelib chiqib ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, nazariy va amaliy bilimlarini boyitish hamda ularni musiqiy tafakkurga ega, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni o'quv jarayoniga joriy etish bu maqsadlarga erishishning muhim vositasidir.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori (PQ-391сон, 15.11.2024).
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.
3. O. Jabborova, “Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni”. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023. [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz)
4. O. Egamberdiyev, “Ta’lim sohasida individual o‘qitish texnologiyalarni shakllari” yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiya materiali. [in-academy.uz/index.php/yo](http://in-academy.uz/index.php/yo).
5. J Yarashev, D. Murotova “Musiqa o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdon nashriyoti, Buxora. 2021 yil 72 bet. 11 betda.
6. G.M. Davronova Musiqa o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlarining musiqa ta’limi yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2021yil, – 192 bet.
7. G.M. Davronova “Oliy ta’limda musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishning muhim jihatlari”. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal (2024 йил № 5).
8. J. O’sarov “Individual ta’lim traektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi” “Yangi O’zbekiston” gazetasining 23.12.23-y, 267-sonida e’lon qilingan.